
Buvaydalik Abdujalilov Elbekka barcha qulayliklarga ega ikki xonali xonadon kaliti topshirildi

Prezidentimiz tomonidan yurtimizda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan yoshlarning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berilmoqda.

Buvaydalik Abdujalilov Elbek ham ota-onasining vafotidan so'ng buvisi To'xtaboyeva Mavludaxonning vasiyligiga olingan edi.

Davlatimiz rahbarining cheksiz e'tibor va g'amxo'rliklari ostida Buvayda tuman hokimligi tashabbusi bilan Abdujalilov Elbekka barcha zamonaviy qulay shart-sharoitlarga ega xonadon kaliti topshirildi.

2023-10-29 12:07:23